

PIRENEY YARIM OROLINING ARABLAR TOMONIDAN EGALLANISHI

Sharipova Muhayyo Atabay qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti Tarix ta'lim yo'nalishi 201-guruh talabasi
sharipovamuhayyo915@gmail.com

Annotatsiya: *Maqola arablarning Pireney Yarim oroliga qilgan istilolari, bu paytdagi Yevropadagi siyosiy ijtimoiy holat Andalusiya so'zining kelib chiqishi haqidagi faktlar, Pireney yarim orolida arablar tomonidan yuritilgani siyosat va bu yerda tashkil topgan musulmon davlatlari haqida.*

Kalit So'zlar: *Keltlar, Barbarlar, Islom, Kordova, Gibraltar, Toriq ibn Ziyod*

Аннотация: *В статье рассказывается об арабских завоеваниях Пиренейского полуострова, социальной ситуации здесь, в Европе, фактах происхождения слова Андалусия, политике арабов на Пиренейском полуострове и основанных здесь мусульманских государствах.*

Ключевые Слова: *Кельты, Варвары, ислам, Кordova, Гибралтар, Тарик ибн Зияд*

Annotation: *the article is about the Arab invasions of the Pyrenean Peninsula, the facts about the origin of the word Andalusian, The political social situation in Europe at this time, the politics of the fact that the Pyrenean peninsula was held by Arabs, and the Muslim states that formed here.*

Keywords: *Celts, Barbarians, Islam, Córdoba, Gibraltar, Toriq ibn Ziyad*

O'sha davrning ikki buyuk imperiyasi, Vizantiya va Eron zaiflashib borayotgan davrlar Arab yarimorolida, bugungi Saudiya Arabistoni hududida, aniqrog'i Makka shahrida dunyoni butunlay o'zgartirib yuborgan olamshumul voqea yuz bermoqda edi. Arablarning o'zlari esa o'sha paytda dunyoni o'zgartirish imkoni o'zlariga berilganidan bexabar edi. Bunga esa faqat payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom boshliq oz sonli musulmonlargina ishongan edi.

Qisqa fursat ichida 628–634-yillar davomida arab yarim oroli egallandi va endigi yurishlar Eron va Rumga qaratildi. 634–638-yillar oralig'ida Suriya, 636–642-yillar davomida Mesopotamiya (Iroq), 638–643-yillar davomida Misr, 644-yilda Tripolitaniya, Kireniak va Liviyaning qolgan hududlari, 642–650-yillar davomida Eron hududlari va 680-yilda bugungi Jazoir hududlari egallandi.

Buyuk ko'chishlar davrida bugungi Ispaniya hududi germanlarning vestgot qabilasi tomonidan egallandi va u yerlarda 418-yilda Vestgotlar qirolligi tashkil etildi. Shimoldagi basklar, asturlar mustaqil, qirg'oq hududlari esa Rim imperiyasi mulki bo'lib qoldi. Rim respublikasi va imperiyasi davrida Rim Ispaniyasi deb atalgan hududlar endilikda Vestgotlar Ispaniyasi deb atala boshladi.

VII asr oxiriga kelib Vestgotlar qirolligi inqirozga yuz tuta boshladi. vabo va ochlik sababli vestgotlarning to'rtidan uch qism aholisi qirilib ketdi. Bu esa o'z navbatida demografik inqirozni keltirib chiqardi. Shuningdek, shimoldan franklar, janubdan esa musulmonlar hujum qilib turishi ham qirollikni zaiflashtirdi. Bundan tashqari, qirollikdagi taxt uchun kurashlar davlatning nihoyasini yaqinlashtirdi.

710-yilda qirol Vitisa vafot edi. Uning o'rniga vestgotlar aristokratiyasi Rodrigoni qirol deb e'lon qildi. Shu paytda boshqa bir guruh ziyolilar Agilla II ni qirol deb e'lon qildi. U asosan shimoliy hududlarda hukmron edi. Shunday qilib Vestgotlar qirolligi fuqarolik urushi yoqasiga kelib qoldi. Bunday tushkunlikdan musulmonlar foydalanmasliklari mumkin emas edi.

710-yilning iyul oyida Tariq ibn Ziyod Tarif ibn Malik boshliq 400 kishini Pireney yarimoroliga yubordi. Shu yili Tarifa oroli egallandi. Orol Tarif ibn Malik sharafiga Tarifa deb nomlandi. Ispan tarixchilari bergan ma'lumotlarga ko'ra, ushbu jangda Seuta grafi Yulian arablarga yo'l ko'rsatuvchilik qilgan. O'sha paytlarda Pireney yarimorolida istiqomat qilgan yahudiylar ham musulmonlarga yordam bergan. Chunki, yahudiylar 617- yilda vestgotlar tomonidan majburan ularning diniga o'tkazilgan.

Shuningdek, vestgotlar qonunchiligi yahudiylarga nisbatan tazyiqlarni ham kuchaytirib yuborgan ³⁰. Gvadalet jangi Tanjer noibi Tariq Ibn Ziyod 711-yil 30-aprel kuni Pireney yarimoroliga qadam qo'ydi. U kechib o'tgan bo'g'oz bugun ham uning sharafiga Gibraltar deb ataladi. Arabchada Jabar al Tariq, ya'ni Tariq tog'i ma'nosini beruvchi bu atama Gibraltar shakliga o'zgargan. Gibraltar qoyasiga o'rnashgan Tariq Andaluziya fathini shu yerdan turib amalga oshira boshladi. Ummaviylar qo'shini Andaluziyaning janubiga o'rnashdi va vestgotlar bilan hal qiluvchi jang 711-yil 19-iyul kuni bo'lib o'tdi.

Ushbu jang tarixda Gvadalet jangi deb nomlandi. Jang Gvadalet daryosi bo'yida bo'lgani uchun ham shu nom bilan ataldi. Arablar Andaluziyaga qadam qo'ygan paytda qirol Rodrigo shimolda basklarga qarshi urushda edi. Bu xabarni eshitib Toledaga qaytib keldi va 33 minglik qo'shin bilan musulmonlarga qarshi yo'lga otlandi. Musulmonlar qo'shini yetti mingtani tashkil qilardi³¹. Musulmonlar shiddatli hujumlar qilib tezlik bilan chekinish taktikasini qo'lladi. Bu vestgotlarga harakat qilishga qiyinchilik tug'dirdi. Musulmon qo'shining asosiy qismini tashkil qilgan otliq qism vestgotlarga qarshi kuchli zarba berib, ko'plab yo'qotishlarga duchor qildi. Jangda qirol Rodrigo ham vafot etdi.

Jang oqibatlari Ushbu jangdagi g'alaba musulmonlarga Andaluziya eshiklarini ochdi. Jangdan so'ng musulmonlar juda tezlik bilan ildamlab bordi. Buning esa bir nechta sabablari bor edi. Fuqarolar urushi va Pireney yarimorolining ochlik va kasallikdan sillasi qurigan, siyosiy barqarorlik istagan katta qism aholisi, xususan,

³⁰ Claudio Sánchez-Albornoz, *Orígenes de la Nación Española : Estudios Críticos sobre la Historia del Reino de Asturias*, t. I, Oviedo, Instituto de Estudios Asturianos, 1972 – 54-56-b

³¹ *Les Juifs dans l'Espagne chrétienne avant 1492*, Béatrice Leroy, Albin Michel, 1993 – 64-69-b

xristian hukmdorlari tomonidan ezilgan yahudiylarning musulmonlar bilan hamkorlik qilishlari ularning tez harakat qilishlariga imkon berdi. Qo'mondon Pireney yarimorolining katta qismini egalladi va endi bu yer Ummaviylar hukmi ostidagi Andalus viloyatiga aylandi.

Qochib qutulgan vestgot zodagonlari shimolga asturlar huzuriga bordi va 722-yildan 1492-yilgacha davom etgan Rekonkistaning targ'ibotchisiga aylandilar. Musulmonlar esa sakkiz asr davomida Pireney yarimorolining shimoliy qismidan boshqa hududlarini idora etdi. 711-yildan ,yani musulmonlar ilk bor kelganlaridan to 756-yilgacha Andalusiyada Damashqdagi xalifalar imperiyasining bir qismi sifatida uning manfaatlari yo'lida amirlar tomonidan boshqarib kelindi. 756-yilda esa Abbosiylar xalifaligidan ajralib chiqdi va mustaqil davlat tashkil qilindi. U oz poytaxti nomi bilan Qurtuba yoki Qurdoba (keyinchalik Kordova) xalifaligi nomi bilan atala boshlandi. Abbosiylar xalifaligidan ajralib chiqqan Andalusiyaning birinchi amiri umaviylar sulolasidan bo'lib Ispaniyaga Abbosiylardan qochib o'tgan mazkur yigitning ismi Abdurahmon ibn Muoviya ibn Hishom ibn Abdumalik bo'lgan. Andalus mamlakati nafaqat Ispaniya balki Portugaliya hududini ham egallagan. Aytishlaricha musulmonlar fatx etgan mamlakatni Nuh alayhissalomning afsonaviy avlodi Andalus ibn Tubalning nomi bilan ataganlar. Ishonarli dalillarga ega bo'lgan rivoyatga ko'ra esa arablar Mag'ribda ekanliklarida barbarlardan dengiz ortida vandallar mamlakati (arab tilida "Biladul Vandalus") borligini eshitganlar, chunki vandallar Gibraltar bog'ozi orqali Mag'ribga o'tib jang qilishgan.

Musulmonlar hukmronligining ilk o'n yilliklaridayoq mahalliy aholining ommaviy ravishda Islomga kirishi kuzatilgan. Savdogarlar va hunarmandlar dehqonlar va qullar islomni qabul qilar edilar. Ular uchun bu shaxsiy ozodlik xususiy mulkka egalik qilish va uni erkin tasarruf qilish imkonini berardi. Shu bilan birga ,aholining boshqa qismi jumladan zodagonlar nasroniylikda qoldilar. Ammo X asrga kelib ,ularning avlodlari musulmon bo'ldilar yoki to'liq arablashdilar.

Andalus mamlakatini shon-shuxratga to'ldirgan ajoyib va yorqin madaniyat u bilan til va din yagonaligi, iqtisodiy va insoniy aloqalar yordamida yaqindan bog'langan arab va ispan madaniyatning bir qismi sifatida shakllangan edi. Vestgot qirollari davrida, Ispaniya unchalik rivojlanmagan, madaniyati yarim rivojlangan yomon ahvolda edi. Musulmonlar tomonidan bosib olingandan ispan madaniyati gullab-yashnadi. Yuz yildan kamroq vaqt o'rtasida shu paytgacha ishlov berilmagan yerlar haydalgan, shaharlar odamlar bilan to'lgan olomonga aylandi, ajoyib qishloqlar qurildi, boshqa xalqlar bilan savdo aloqalari o'rnatildi, musulmon ilm-fan va arxitektura san'ati tez sur'atlarda rivojlantirdilar.

Uzoq vaqt davomida butun Yevropada rivojlangan fanning yagona manbaiga aylangan universitetlarga yunon va lotin tillarida ko'plab asarlar tarjima qilindi. Uch asr davomida Kurtuba, shubhasiz, o'rta asrlarning eng yorqin shaharlaridan biriga aylandi. Andalusiyada nomi bilan tarixga kirgan musulmonlar qo'l ostidagi Ispaniya ravnaq topdi. Andalusiyadan buyuk olimlar, faylasuflar, yozuvchilar, me'morlar, rassomlar va

amaliy san'at ustalarining ismlarining o'zi kitobni bir necha kitobni to'ldirishi mumkin³².

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. - Les Juifs dans l'Espagne chrétienne avant 1492, Béatrice Leroy, Albin Michel, 1993 – 63-69b
2. - Claudio Sánchez-Albornoz, Orígenes de la Nación Española : Estudios Críticos sobre la Historia del Reino de Asturias, t. I, Oviedo, Instituto de Estudios Asturianos, 1972 – 54-56b
3. - Pierre Guichard, Al-Andalus, 711-1492 : Une histoire l'Espagne musulmane, Hachette Littératures, coll. « Pluriel », 2000 – 22-25b
4. - Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Olam, odam, din va ilm" – 24-25b
5. https://daryo.uz/2020/07/19/islom_yevropada_musulmon_ispaniyasiga_asos_solgan_gvadalet_jangi_haqida

³² Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Olam, odam, din va ilm" – 24-b